

Xorijiy Tilda Nutq Ko'nikmalarini Hosil Qilish Va Mustahkamlash Ishlarini Olib Borish Bosqichlari Xususida

Sh. Nuritdinova¹

Annotatsiya: maqlada xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy pedagogik metodlarning bir qator turlari ahamiyati, ta'lim texnologiyalarining darsdagi ijobiy ahamiyatlari hamda ulardan foydalanish usullari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy texnologiyalar, lingvistika, prezentatsiya, nutqiy ko'nikmalar, grammatik, fonetik, aqliy hujum, motivatsiya, pinbord usuli, klaster usuli, differensial, individual, kommunikabellik, adekvat.

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganishga talab naqadar kuchayganligini barchamiz guvohi bo'lib turibmiz. Yurtimiz kelajagi bolgan yoshlar to'g'risida doimiy g'amxo'rlik davlatimiz siyosatining ustuvor yo'naliшlaridan biridir.

Hozirgi paytda jahon miqyosida sodir bo'layotgan rivojlanish jarayonida turli soha fanlarining jadallik bilan o'sayotganligi, yangi kashfiyotlar natijasida bilimlar doirasi yanada chuqurlashib va kengayib borishi kuzatilmogda. Til o'rgatish bilan bog'liq bo'lган zamon talabi keng jamoatchilikning ham xorijiy tillarni o'rganishga bo'lган munosabatini o'zgartirib yubordi. Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lган qiziqish ortib bormoqda. Bu esa o'z navbatida xorijiy tillarni o'qitishining yangi zamonaviy texnologiyalarini izlab topish, xorijiy til o'qitishning jadallahsgan, interfaol usullaridan foydalanish zaruratinini keltirib chiqaradi.

Zamonaviy o'qitish texnologiyalari asosida ta'limni tashkil qilishdagi yana bir muhim masalalardan biri bu o'qitish maqsadini va usullarini aniqlashga alohida yondashuvdir. Tabiiyki, o'qitish maqsadi o'rganilayotgan o'quv materialini tushunib olish va mustahkamlash orqali o'z bilimini chuqurlashtirishni nazarda tutadi.

Uni amaliyotda qo'llash uchun esa ma'lum nutqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, lingvistik va nutqiy tajribani oshirish hamda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini hosil qilish zarur.

Til o'qitish amaliyotida so'nggi yillarda professor S.F.Shatilov tomonidan ishlab chiqilgan bilim olish va nutqiy ko'nikmalar hosil qilishning quyidagi uch samarali qo'llanib kelinmoqda :

1. Prezentatsiya – o'quv materialini dars jarayoniga kiritish bosqichi;
2. O'rganilayotgan chet til materialini mashq qilish bosqichi;
3. Nutqiy vaziyatlar asosida nutqiy ko'nikmalar hosil qilish bosqichi;²

Birinchi bosqichda o'quv materiali ma'ruza, hikoya, turli ko'rgazmalilik asosida namoyish qilish, tushuntirish orqali o'quv jarayoniga kiritiladi. Bu bosqichda texnik vositalardan va boshqa ko'rgazmalilikdan til materiali xarakteri va o'quv maqsadiga mos ravishda foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu bosqichning asosiy maqsadi o'rganilayotgan til materialini (leksik, grammatik, fonetik) tushunib olish va ma'lum tushunchalarga ega bo'lish. Bu yerda «Aqliy hujum» (miyaga hujum) usulidan ham foydalanish mumkin.

¹ Farg'onada davlat universiteti, chet tili fakulteti

² Шатилов. С.Ф. Методика обучения иностранному языку в средней школе. Москва.,1977.



Birinchi, ya’ni prezentatsiya bosqichida o‘quvchilarning bilim olishlari passiv ya’ni (tinglash va tushunib olish) shaklida emas, balki faol ravishda kechishini ta’minlash texnologik yondashuvda juda katta rol o’ynaydi.³

Bu yerda o‘rganilayotgan til materialini o‘quvchilar shunchaki keyin qayta ayтиb berishlari uchungina emas, balki tushunib olishlari ya’ni uqib olishlari, shu til materialidan nutqiy muloqot jarayonida ijodiy foydalanish nuqtai nazaridan o‘rganishlarini ta’minlash zarur. Buning uchun esa o‘qituvchi ularda shu mavzu ya’ni o‘quv materialiga nisbatan motivatsiyani hosil qila bilish, ko‘rgazmalilik asosida mavzuni qisqa va lo‘nda qilib tushuntira bilish talab etiladi. O‘quvchilarda til materialini tushunib olish jarayonida unga nisbatan o‘z fikrini ifodalashi ham ushbu til materialini chuqur o‘zlashtirishni kafolatlaydi.

Ikkinci bosqichda asosiy e’tibor o‘rganilayotgan til materialini nutq faoliyati turlari (gapishtirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozish) da mashq qilish ya’ni gaplar tuzish, turli til mashqlarini bajarishga o‘tish tavsiya qilinadi. Ular og‘zaki yoki yozma shaklda bo‘lishi mumkin.

Berilgan topshiriq hamda mashqlarni bajarish jarayonida ko‘rgazmalilikdan va tarqatma materiallardan foydalanish o‘quvchilarda shu ishga nisbatan qiziqish va istak-xohsh, ya’ni motivatsiyani o‘stiradi.

Shuningdek, pinbord, klaster kabi usullaridan foydalanish o‘quvchilarda o‘ylab, solishtirib ish qilishni va mantiqiy fikrlashni o‘stiradi.

Mashq bajarish jarayonida differensial va individual yondashuv ta’lim oluvchi shaxs (o‘quvchi yoki talaba) ni shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini hisobga olish va shunga ko‘ra mashq turlarini osonlashtirish yoki murakkablashtirish mumkin. Agar ta’lim oluvchining bilim darajasi past bo‘lib mashqni bajarish uning uchun qiyinchilik tug‘dirsa, u holda talabada qiziqish va o‘z kuchiga ishonch yo‘qoladi.

Shuning uchun ham individual yondashuv zarur.

Uchinchi bosqich, ya’ni o‘rganilayotgan til materialini nutqiy vaziyatlarda qo‘llash orqali nutqiy ko‘nikmalar hosil qilish bosqichi o‘quvchilardan nutqiy faollikni talab qiladi. O‘qituvchi oldindan tayyorlab qo‘ygan, nutqiy vaziyatlarga assoslangan topshiriqlarni beradi, o‘quvchilar esa o‘rganilayotgan til materialini shu nutqiy vaziyatlarga mos ravishda qo‘llash orqali uni amaliyotga tadbiq etadilar.

O‘qituvchi tomonidan tuzilgan o‘quv nutqiy vaziyatlarni iloji boricha tabiiy nutqiy vaziyatlarga yaqinlashtirish lozim, chunki bajarilayotgan nutqiy harakatlar o‘quv vaziyatiga adekvat (mos) kelgandagina hosil qilinayotgan nutqiy ko‘nikma va malakalar puxta bo‘ladi. Buning uchun turli didaktik rolli o‘yinlardan foydalanish, ularni rekvizit asosida ijro etish zarur.

Ushbu bosqichda bahs, guruh-guruh, juft-juft bo‘lib ishslash kabi ta’lim shakllari va muammoli vazifalar, «pinbord» texnikasi «davra stoli» texnikasi kabi usullardan foydalanish yaxshi natija beradi.

O‘qituvchi o‘quvchilardan harakatchan kichik-kichik guruuhlar tuzganda ta’lim jamoaviy tus oladi, har bir o‘quvchini nutqiy topshiriqlarini bajarish jarayonidagi harakatini nazorat qilish mumkin bo‘ladi, ular o‘rtasidagi munosabatlarda kommunikativlik ruhi shakllanadi, va har bir o‘quvchida o‘z fikrini bildirishga nisbatan motivatsiya hosil bo‘ladi, ularagi ichki potensial imkoniyatlar yuzaga chiqadi.

Guruhlarni shakllantirishda o‘quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari, kommunikabelligi, faolligini hisobga olgan holda o‘quv vazifasini bajarish jarayonida o‘zining imkoniyati, qobiliyati va mahoratini ko‘rsata bilsin.

O‘qituvchi oldindan juft-juft bo‘lib yoki guruh-guruh bo‘lib ishslash uchun topshiriqlarni tayyorlab qo‘yishi va ularga mos ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallar tanlay bilishi lozim. Shuningdek o‘qituvchi mashg‘ulot paytda o‘zi bajaradigan ishlarni (qanday topshiriq berish, guruh a’zolarini ixtiyoriy yoki majburiy asosda tanlash, qaysi paytda suhabatga qo‘shilish, qanday nazorat turlaridan foydalanish va hokazo) aniq bilishi, imkon bo‘lsa oldindan bajarib ko‘rishi maqsadga muvofiq.

³ Алимов Ш.С. Интенсив методлар, интерфаол методлар, ноанъанавий дарс ўтиш усуллари Андижон 2009.



O'qituvchi a'lochi o'quvchilardan o'ziga yordamchilar tanlab olishi, ya'ni guruh sardorlarini tayinlash va ularga o'zlarining qobiliyati va qiziqishiga ko'ra topshiriqlar berishi ham maqsadga muvofiq.

Ish yakunida guruhlar bajargan ishlarga baho berishda xolisona yondashuv, yutuq va kamchiliklarni to'g'ri ko'rsatish va haqqoniy baholash zarur.

Zamonaviy pedagog o'qituvchi uchun o'rgatayotgan chet tilini yaxshi bilishi, nutqining ravonligi, jumla va gaplarni sodda va tushunarli qilib bera olishi, darsni chet tilida olib borishi, kommunikabelligi, talabchanligi, ma'suliyatni his qilishligi, haqqoniyligi kabi xislatlar juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lism jarayonining samaradorligi, o'quv materialini o'quvchilar tomonidan chuqur o'zlashtirilishining eng muhim omillaridan biri – o'qitish usullari hisoblanadi. Bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun qo'llaniladigan ta'lism usullari o'quv maqsadi, til materialining xususiyati, o'quvchilarning bilim darajasi, qiziqishlari asosida tanlab olinadi.

Ular texnologik jarayon qismlarini bir-biri bilan bog'lab turuvchi muhim didaktik zveno (bo'g'in) hisoblanadi. Shuningdek, ta'lism usullari o'qituvchi va o'quvchilarning ta'lism jarayonidagi hamkorligini amalga oshiruvchi vosita hamdir.

Aslida «usul» so'zi grekcha «metodos» so'zidan olingan bo'lib izlanish, bilish, yo'li, ta'minot ma'nosini bildiradi. Usul o'quv jarayonidagi o'qituvchi tomonidan qo'yilgan konkret vazifani bajarish uchun xizmat qiladi.⁴

Ma'lumki, ta'lism jarayonidagi o'qituvchi va o'quvchi hamkorligining natijasi o'qitish oldiga qo'yilgan maqsadga erishilshimi, ya'ni loyihalashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarini o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishidir. Bunga esa faqat birgalikdagi faoliyat – hamkorlik faoliyati orqaligina erishish mumkin.

Chet tili, xususan olmon tili o'qitilishida ma'ruza usuli chet tili fakultetlaridagi nazariy fanlarni o'qitishda keng qo'llaniladi. O'rta maktab va kollejlarda chet tili o'qitish esa nutqiy faoliyat turlariga (gapishtirish, tinglab-tushunish, yozish va o'qishga) yo'naltirilganligi va shularga mos ko'nikma va malakalar hosil qilishni ko'zlaganligi uchun ham bunda o'qitishning namoyish qilish, tushuntirish, hikoya qilish, illyustratsiya (rasmli, ko'rgazmalilik) video usul, mashq qilish, (og'zaki va yozma mashqlar), rolli o'yinlar, suhbat, savol-javob, bahs, munozara, pinbord va boshqalar keng qo'llaniladi.

Ushbu usullar olmon tili o'qitishdagi uch bosqich prezentsiya, mashq qilish va nutqiy vaziyatlarda har bir bosqichning maqsadidan kelib chiqib tanlab olinadi va qo'llaniladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugunda xorijiy tillarni o'qitish jarayoniga jiddiy yondoshish zamon talabidan kelib chiqqan holda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan asoslangan holda darslarni tashkil qilish ta'lism berish va faol nutqiy ko'nikmalarini hosil qilishda samarali, ijobiylah ahamiyatga egadir. Darslarni yuqorida bayon qilingan usullar, turli harakatli o'yinlar bilan olib borish til o'rganuvchilarda gapishtirishga nisbatan qo'rquvni yo'qotadi, til o'rganayotgan talaba va o'quvchilarni xorijiy tilga nisbatan malaka va ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga talaba va o'quvchilar dunyoqarashini o'stirishi jihatidan ijobiylah ahamiyat kasb etadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

- Шатилов. С.Ф. Методика обучения иностранному языку в средней школе. Москва., 1977.
- Alimov Sh. S. Intensiv metodlar, interfaol metodlar, noana'naviy dars o'tish usullari. Andijon, 2009.
- Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. Chet tillari oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik .- T..O'qituvchi, 1996.338b.
- Nuritdinova, S. X., & Ibragimov, V. Y. (2022). Problems of Grammatical Interference in Teaching German Language to Uzbek Students. *International Journal of Formal Education*, 1(10), 163-168.

⁴ Жалолов Ж. Чет тил ўқитиши методикаси Тошкент 1980



5. Khamidovna, N. S. (2021). On The Use of Infinitive Groups in German and Uzbek Languages. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 1(1), 202-204.
6. Xamidovna, N. S. (2021). On The Influence of The Phonetic Laws of The Uzbek Language in The Teaching of German. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 3, 46-48.
7. Nurtdinova, S., & Kochkarova, Y. (2022). Difficulties In Teaching Foreign Languages. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 4, 127-128.
8. Musinovna, S. H., & Tadjibaevn, M. A. (2021). STRUCTURAL AND SEMANTIC CHARACTERISTICS OF PROVERBS. *Евразийский Союз Ученых*, (1-4 (82)), 22-25.
9. Sotvoldiyeva, H. M. (2019). STRUCTURAL AND SEMANTIC CHARACTERISTICS OF PROVERBS. *Мировая наука*, (9), 53-56.
10. Сотвалдиева, Х. М., & Дадамирзаева, Н. (2018). Синтаксическая структура английских пословиц. *Молодой ученый*, (44), 306-307.
11. Qayumjonovich, A. O., & Bahodirovna, A. F. (2023). ORONIMLARNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, 2(14), 136-140.
12. Abbozov, O. Q. (2021). General properties of oronims. *ISJ Theoretical & Applied Science*, (12), 389-391.
13. Qayumjonovich, A. O. (2023). In Particular of the Formation of the Oronims. *Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies* (2993-2599), 1(10), 13-17.
14. Makhmudovna, A. Sh. (2023/4/10). THE MEANING OF INDEPENDENT DECISIONS IN LESSONS GERMAN AS FOREIGN LANGUAGE. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMUY JURNALI*, 36-38
15. Makhmudovna, A. Sh. (2023/4/10). SOME OPINIOS ABOUT INDEPENDENT DECISIONS IN GERMAN AS FOREIGN LANGUAGE LESSONS. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMUY JURNALI*, 31-35
16. Makhmudovna, A. Sh. (2022). TO'Y MAROSIMI VA NIKOH BILAN BOG'LIQ TUSHUNCHALARING LEKSIK-SEMANTIK TASNIFI. *FarDU.ILMIY XABARLAR*, 999
17. Makhmudovna, A. Sh. (2021/10/25). The content of teaching foreign languages. *World Bulletin of Social Sciences*, 39-40
18. Oxonjonovich, A. S. (2023). ZAMONAVIY NEMIS TILI FRAZEOLOGIK NEOLOGIZMLARINING SINTAKTIK TUZILISHI VA SEMANTIK TARKIBI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHЛИI ONLAYN ILMUY JURNALI*, 3(8), 28-32.
19. Oxonjonovich, A. S. (2023, June). FRAZEOLOGIK TADQIQLAR TARIXIGA BIR NAZAR. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 88-90).
20. Ibrochimowitsch, S. R., & Oxonjonowitsch, A. S. (2023). DIE WORTARTEN IM DEUTSCHEN. *XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR*, 1(6), 28-31.
21. Okhonjonovich, A. S., & Ibrohimovich, S. R. (2023). GENERAL CONCEPTS OF PHRASEOLOGICAL UNITS. *XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR*, 1(6), 23-27.
22. Oxonjonovich, A. S., & Ibrohimovich, S. R. (2023). O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDA JINS KATEGIRIYASINING GRAMMATIK QURILISHI. *XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR*, 1(6), 19-22.
23. Абдилоев, Ш. О. (2023). ЎЗБЕК, ТОЖИК, РУС ВА НЕМИС ТИЛЛАРИДА УЙ ҲАЙВОНЛАРИ БИЛАН БОҒЛИҚ БЎЛГАН ЗООНИМ ФРАЗЕОЛОГИК



БИРЛИКЛАРНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ. *XXI ASRDA INNOVATION TECHNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR, 1(5)*, 149-152.

24. Абдилоев, Ш. О. (2021). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Евразийский журнал академических исследований, 1(9)*, 306-309.
25. Abdullayev, S. (2022). ACHIEVING THE RICHNESS OF ORAL AND WRITTEN SPEECH WHEN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE. *Oriental Journal of Social Sciences, 2(06)*, 34-39.
26. Abdiloyev, S. O. (2023). Phraseologies In German Related To Animal Wildlife. *PERFECT EDUCATION FAIRY, 1(1)*, 29-35.

